

Fan olimpiadasining ilk bosqichi

☒ 26-27 mart kunlari “Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasida “Qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi” fanidan Respublika fan olimpiadasining 1-bosqichi yuqori saviyada tashkil etilib, Nizomda belgilangan tartib asosida muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

“Qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi” fanidan Respublika fan olimpiadasining 1-bosqichida “Gidromelioratsiya” fakulteti “Suv xo‘jaligi va melioratsiya” ta‘lim yo‘nalishi hamda “Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash” fakulteti “Suv xo‘jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash” ta‘lim yo‘nalishidan 20 nafar talabalar ishtirok etishdi.

Respublika fan olimpiadasining 1-bosqich natijalariga asosan, “Gidromelioratsiya” fakulteti “Suv xo‘jaligi va melioratsiya” ta‘lim yo‘nalishi 403-guruh talabasi Abdukarimov Abror Baxodir o‘g‘li 1-o‘rinni, “Suv xo‘jaligi va melioratsiya” ta‘lim yo‘nalishi 402-guruh talabasi Jo‘rayeva Xayotxon Nodirjon qizi 2-o‘rinni, “Suv xo‘jaligi va melioratsiya” ta‘lim yo‘nalishi 402-guruh talabasi Allayarova Dilbar Sobitjon qizi 3-o‘rinni egalladi.

“Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrasi assistenti D.G.Yulchiyev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov